

TIJORAT BANKLARINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Toshkent Kimyo xalqaro
universiteti Namangan filiali

Ozodbek Saydulla o'g'li Abdullayev
abdullayevozodbek636@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari to'g'risida so'z boradi. Huquqiy jihatdan amaldagi qonunlar va litsenziyalash tartibi, iqtisodiy tomondan esa ustav kapitali, moliyaviy barqarorlik hamda banklarning iqtisodiyotdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, huquqiy asoslar, iqtisodiy asoslar, moliyaviy barqarorlik, bank faoliyati

Abstract: This article discusses the legal and economic foundations of the organization of commercial banks. From a legal perspective, the current laws and licensing procedures are covered, and from an economic perspective, the authorized capital, financial stability and the role of banks in the economy are covered.

Keywords: commercial banks, legal foundations, economic foundations, financial stability, banking activities

Tijorat banki nima? Tijorat banki- tijorat asosidagi bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish va kreditlarni taqdim qilish, bank hisob varaqalarini ochish va ularni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi amaliyotlarni amalga oshiruvchi yirik kredit muassasasidir. Korxona, tashkilotlar va fuqarolarga universal bank xizmatlari: hisob-kitob, to'lov operatsiyalari, omonatlarni saqlash, ssudalar berish, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar kabilarni taqdim etadi. Xususan, shu kabi xizmatlarni ta'minlagani bois tijorat banklari davlat moliyaviy tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan. Banklar iqtisodiyotdagi pul oqimlarini tartibga solish, investitsiyalar va yakka tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol tutadi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi mustaqillikdan so'ng bosqichma-bosqich rivojlanib, hozirgi kunda deyarli iqtisodiyotni barcha sohalarini qamrab olgan.

Bank tizimi – tashkiliy tuzilma sifatida yirik dastur bo'lib – mamlakatning iqtisodiy tizimi tarkibidan joy olgan. Bu shuni bildiradiki, banklarning faoliyati va rivojlanishini moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, muomala va iste'mol qilish bilan bog'liq holda ko'rib chiqish zarurdir. O'zining amaliy faoliyatida banklar xo'jalik hayotini tartibga solish mexanizmi bilan uzviy ravishda bog'liqligi yaqqol namoyon bo'lib turadi.

Tijorat banklarini belgilariga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Mulkchilik shakliga ko'ra banklar:

- Davlat banklari
- Aksiyador banklar
- Kooperativ
- Xususiy
- Mintaqaviy
- Aralash
- Mulkchilikka asoslangan banklar kabi turlarga bo'linadi.

Aksiyador banklar aksiyador jamiyat kabi ochiq yoki yopiq turdagi aksiyador banklar bo'lishi mumkin. Aksiyalarni sotib olish yo'li orqali aksiyadorlar safiga qo'shilish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritadi. Ya'ni huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyalarini sotib olishi va aksiyadorga aylanishlari mumkin.

Ba'zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar iborat bo'lishadi.

Xususiy banklarga yuzlanadigan bo'lsak, bu turdagi muassasalar jismoniy shaxsning pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining faoliyati "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun (1995-yil 21-dekabr) hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 5-noyabr) bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar banklarning tashkil etilishi, ularning ustav kapitali, litsenziyalash jarayoni va faoliyat doirasini belgilab beradi. Tijorat banki yuridik shaxs sifatida tashkil etilib, Markaziy bankdan litsenziya olgandan so'ng o'z faoliyatini boshlashi mumkin. So'nggi yillarda mamlakatimizda bank sektorini modernizatsiya qilish bo'yicha keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, xorijiy investorlarni jalb qilish, davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarni asta-sekin xususiylashtirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va "ochiq bank" dasturini joriy qilish ishlari olib borilmoqda.

Yetarli miqdorda ustav kapitaliga ega bo'lish bank tashkil etishda muhim omillar sirasiga kiradi. 2023- yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan ma'lumotlarga binoan yangi tashkil etiladigan tijorat bankining ustav kapitali minimal miqdorda 100 milliard so'mdan iborat bo'lishi kerakligi qonundan belgilab qo'yilgan. Hamda bank rahbariyati kadrlari moliyaviy sohada kamida uch yillik ish tajribasiga ega bo'lishi majburiy hisoblanadi. Bu talablar bank faoliyatining barqaror va tizimli ishlashini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi. Yuqoridagi nizomlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, istalgan inson o'zboshimchalik

bilan tijorat banki tashkil qilish huquqiga ega emas. Aholining nafaqat shaxsiy daxlsizligi, balki iqtisodiy xavfsizligi ham davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Huquqiy asoslar bilan bir qatorda, bank tashkil etiladigan hudud aholisining iqtisodiy sharoitini ham inobatga olish maqsadga muvofiq. Bunda bozorning moliyaviy holati va aholining talablarini izchil o'rganish yaxshi samara berishi ehtimoldan holi emas. Negaki, talab bor joyda, foyda ham yuqori bo'lishi hech kimga sir emas. Misol uchun, bank tashkil etilayotgan joyda aholi ko'proq mahalliy tadbirkorlikka, misol uchun, asalarichilik, parrandachilik yoki ishlab chiqarishni kengaytirish kabi sohalarga ehtiyoj baland bo'lsa, aynan shu jihatlarni inobatga olib kredit ajratish samaraliroq bo'ladi.

Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi roli yildan-yilga ortib bormoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston bank tizimining jami aktivlari 880 trillion so'mdan oshib, yalpi ichki mahsulotning qariyb 42 foizini tashkil etgan. So'nggi yillarda tijorat banklarining kredit portfeli o'rtacha 30 foizdan ortiq o'sdi, bu esa kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Yangi tashkil etilayotgan banklar uchun minimal ustav kapitali yuqori narxda belgilanishi ham bu banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xorijiy sarmoyadorlarning ishtiroki ortib, 2023-yilda bank sektoriga 450 million AQSH dollaridan ziyod to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritildi.

Tijorat banklarining o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi nafaqat qonuniy va iqtisodiy asoslarga muvofiq ish yuritishiga, balki qay darajada zamon bilan uyg'unlashganiga ham bog'liq. Ya'ni, hozirgi vaqtda foydalanuvchilarga yanada qulaylik yaratish maqsadida banklar o'z mobil ilovalarini yaratishmoqda. Bu ilovalar orqali elektron tarzda hisobdagi pullarni boshqarish, kredit olish, kommunal hamda mobil to'lovlarni amalga oshirish kabi turli xizmatlarni uydan chiqmagan holatda amalga oshirish imkoniyatlarini taqdim qiladi.

Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar tijorat banklari faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Hozirda mamlakatda "Apelsin", "Click", "Payme", "Zoomrad" kabi to'lov tizimlari 20 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega bo'lib, aholiga qulay moliyaviy xizmatlarni taqdim etmoqda. "Open Banking" tizimi esa mijozlarga bir nechta bankdagi hisoblarini yagona ilova orqali boshqarish imkonini beradi. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq, 2025-yilgacha bank xizmatlarining 90 foizini raqamlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, bu iqtisodiyotning samaradorligini yanada oshiradi.

Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari mamlakat moliya tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim omildir. Bank faoliyatining qonuniy tartibga solinishi, iqtisodiy mexanizmlar bilan uyg'unlashgan holda, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Kelgusida bank sektorining raqamli transformatsiyasi va xalqaro integratsiyasi bu sohaning yanada samarali rivojlanishiga

xizmat qiladi. Tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi va barqaror o'sish uchun zamin yaratadi. Asosiy tarmoqlar- ta'lim, aholi salomatligini ta'minlash, nafaqa berish va shu kabi talaygina masalalar iqtisodiy nuqtai nazardan bevosita davlat iqtisodiyotiga tayanib ish ko'radi. Shunga ko'ra, mamlakatimiz bank sohasida yutuqqa erishsa, nafaqat iqtisodiy darajamizga, balki yashash sharoitlarimizga ham ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda, investitsiya muhitini yaxshilashda va raqamli transformatsiyani jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bank sohasida raqamli banklar, sun'iy intellekt asosidagi kredit tahlili tizimlari va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish orqali yanada samarali, shaffof va raqobatbardosh moliyaviy tizimni shakllantirish kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 1995.
3. “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari – www.cbu.uz
5. Karimov I.A. “O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida”. – Toshkent, 1993.
6. Otabekov, B. “Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi o'rni”. – Toshkent moliya instituti, 2021.